

## Nazariya va amaliyot yanada uyg'unlashmoqda

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ko'z ko'rib quloq eshitmagan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohot va o'zgarishlarni alohida e'tirof etish joiz. Shunday izchil amalga oshirilayotgan ishlarning yaqqol namunasi sifatida, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" hamda "Gidromeliorativ ishlarini mexanizatsiyalash" fakultetlari talabalari yurtimizda eng ilg'or qurilish uchun maxsus texnikalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanib kelayotgan "Krantas group" korxonasiga tashrif buyurdilar. Tashrif doirasida Yoshlar akademiyasi va "Krantas group" mas'ul xodimlari talabalarni ushbu korxonada ish faoliyati hamda eng ilg'or konstruktorlik byurosi jamoasi bilan tanishtirishdi. Shuningdek, talabalarga sanoat dizayni, 3D modellashtirish, arxitektura va qurilish sohalarida faoliyat yuritishni hamda ushbu sohalarga qiziquvchi yoshlarni "Krantas group" ishlab chiqarish bo'limlari bilan yaqindan tanishdilar.



Ma'lumot o'rnida "Krantas group" korxonasida qurilish sanoatida foydalanishga mo'ljallangan 70 turdan ortiq maxsus texnikalar ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan. Mashina ishlab chiqarishning to'liq texnologik jarayoni zavodda sanoatni rivojlantirish bo'yicha jahonning so'nggi tendentsiyalariga mos ravishda yangi turdagi maxsus jihozlar, loyihalar va ishchi rasmlari mustaqil ravishda ishlab chiqish bo'yicha o'z konstruktorlik byurosi mavjudligi shuningdek, 3D modellashtirish tizimlari mavjudligi ushbu korxonaning salohiyati qay darajada yuqori ekanligidan dalolat beradi. Uchrashuv qizg'in savol javob hamda muhokamalarga boy tarzda bo'lib o'tdi. Tadbir yakunida korxonada rahbarlari ushbu soha bo'yicha ta'lim olayotgan, iqtidorli talabalarni rag'batlantirish hamda kelajakda ushbu korxonada ishlash niyatida bo'lgan bitiruvchilarni, ishga taklif qilishdi va bunday amaliy tadbirlarni tashkil etish talabalar uchun muhimligi bu esa o'z navbatida nazariya va amaliyotni yanada uyg'unlashtirishda katta ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlab o'tildi.



TIQXMMI matbuot xizmati